

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING TARKIBIY TUZULISHI VA ULARNI BOSHQARISHNING ZARURLIGI

Tursunov Faridun Mustafoyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Bank ishi” kafedrası o‘qituvchisi

tursunovfaridun4330@gmail.com

Narzulloyev Jamolxon Nabixon o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

narzulloyevjamolxon06@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aktivlar tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o‘rni, banklardagi aktivlar rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, hamda bank aktivlarning rivojlantirishda uchraydigan ba‘ze muammolar o‘rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba‘ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, aktivlarining tarkibiy tuzulishi va ularni boshqarishning dolzar va zarur jihatlari yoritib berildi hamda O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida bank aktivlari haqidagi barcha to‘plangan statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** aktivlar, kredit tavakkalchiligi, aktivning jami qiymati, standart kreditlar, substandart kreditlar, bank tizimi, islohotlar, moliyaviy barqarorlik, xizmatlar mavjudligi, raqamli texnologiyalar.*

STRUCTURAL ARRANGEMENT OF ASSETS OF COMMERCIAL BANKS AND THE NEED TO MANAGE THEM

ABSTRACT

This article examines the concept of assets, its role and role in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of assets in banks, as well as some problems encountered in the development of banking assets, and some practical proposals and recommendations are given to solve these problems. Also, the structural structure of its assets and the relevant and necessary jihats of their management were highlighted and analyzed on the basis of all accumulated statistics on bank assets in the practice of commercial banks of Uzbekistan.

Keywords: *assets, credit risk, total asset value, standard loans, substandard loans, banking system, reforms, financial stability, availability of services, digital technologies.*

KIRISH

Bank tizimidagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur barqaror makroiqtisodiy va qulay investitsion muhitni shakllantirish hisoblanadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini mustahkamlash bilan aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining ishonchli hamkoriga aylanishga erishiladi. Shu maqsadda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha strategiyasi”da iqtisodiyotni rivojlantirish, erkinlashtirish va tartibga solishning dolzarb ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan[1]. 2019-yildan boshlab kam ta‘minlangan oilalarni tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar ajratish orqali qo‘llab-quvvatlash borasida salmoqli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Biz tijorat banklari nafaqat resurslarni jalb qiladi, balki ularni foydali manbalarga yuqori risk asosida joylashtirish orqali, banklarning faoliyati boshqa moliyaviy muassasalar faoliyatidan ta’kidlamoqchimiz. Aynan, mana shu jarayon tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o‘z nutqida bu borada “...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko‘rishimiz lozim. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e‘tiborimiz markazida bo‘ladi” deya, aytib o‘tgan edilar [2].

Qarzlarning o‘z muddatida to‘lanishiga shubha tug‘dirmaydigan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanadi. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag‘lari oqimiga, shuningdek amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o‘z mahsuloti bo‘yicha marketing rejasiga ega bo‘ladi. Ta‘minot «yaxshi ta‘minlangan» kredit mezonlariga mos keladi. Ta‘minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo‘lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo‘lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-mulkiga doir huquqlari to‘g‘risidagi yozuv garov reestrda aks ettirilishi lozim[3].

Bundan tashqari so‘ngi yillarda bank tizimini ommaboplashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko‘zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yil 23 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [4].

NATIJALAR

Har bir tijorat banki o‘z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o‘zi ishlab chiqmog‘i zarur. Ma‘lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o‘zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog‘lik risklar

aktivlar baxosining va ular bo'yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha risklar salmog'ining oshishiga olib keladi.

Risklilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi:


1- guruh riskdan xoli bo'lgan aktivlar. Bularga: nakd pullar va boshqa kassa xujjatlari, Markaziy bankdagi "Nostro", "Vostro" schetidagi mablag'lar, majburiy rezerv schetidagi mablag'lar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari kiradi.

2-guruh kichik riskli aktivlar. Bularga: boshqa banklarning "Nostro" va "Vostro" korschetlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, evroobligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar va boshqa xujjatlar kiradi. Bu aktivlar buyicha risk darajasi 20% ga teng.

3-guruh yukori riskli aktivlar: boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar. Bu aktivlar buyicha risk 50 % ga teng.

4-guruh eng yuqori darajadagi riskli aktivlar: qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan veksellar, trast xujjatlar va akkreditivlar, trattalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, bankning to'lanmagan aksiyalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jaraenida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard, sotish va sotib olish (bank bilan va banklararo) lar kiradi[5].

Endi bank aktivlarning asosiy tarkibini ko'rib chiqamiz(1-rasm).



1-rasm. Aktivlar tarkibi

Markaziy bankning «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi»ga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarda, jumladan quyidagilar ifodalangan. (1-jadval).

Tijorat banklari aktivlari sifatining tasniflanishi¹

1-jadval

Tasniflash toifalari	Muddati o'tgan kunlar	YAratilishi lozim bo'lgan zaxira	Foizlarni hisoblash
Standart	0	1%	balansda
Substandart	0	10%	balansda
Qoniqarsiz	1-89	25%	“Ko'zda tutilmagan holatlar”hisobvarag'ida
Shubhali	90-179	50%	
Umidsiz	180 va ko'p	100%	

MUHOKAMA

Bank aktivlarining qiymatini va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri xisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri xisoblash, ularni joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Aktiv amaliyotlarning eng asosiy kismini kreditlar tashkil etadi. Tijorat banklaridan aktivlarni joylashtirishda quyidagi mezonlarga aloxida etibor karatishni lozim deb topdik.

1. Aktivlarni joylashtirishni dastlabki bosqichida mijozning tulovga layokatlilikini tahlil qilishning rivojlangan mamalakatlar tajribasidan foydalangan xolda tahlil qilish lozim;

¹ A.A. Azlarova, M.M. Abduraxmanova. Tijorat banklarining resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: – «IQTISODIYOT» – 2019, 311 bet.

2. Kredit ta'minotiga likvidli mol-mulklarni garovga olish va mustaqil baholovchi tashkilotga mulkni baholatmasdan har bir bankning uzida malakali mutaxassislardan iborat baholash komissiyasi orqali garov mulklarini baholash lozim;

3. Faqat yuridik shaxs buyicha ma'lumot bermasdan, yuridik shaxsning rahbari va ta'sisчилari bilan birga malumot olish imkonini yaratish lozim.

XULOSA

Umuman olganda, O'zbekiston bank tizimida xizmatlar samaradorligi, barqarorligi va ulardan foydalanish qulayligini oshirishga qaratilgan faol o'zgarishlar va islohotlar jarayoni davom etmoqda. Mamlakat raqobat va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlatning bank sektoriga aralashuvini kamaytirish tarafdori.

Kelgusi besh yil davomida bank tizimini isloh qilish strategiyasining qabul qilinishi yanada ochiq, samarali va mijozlarga yo'naltirilgan moliyaviy tizim sari qadamdir. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kuchayishi ushbu strategik maqsadlarga erishish uchun tajriba va resurslarni jalb qilish majburiyatini aks ettiradi.

O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalar faol joriy etilmoqda, aholi va biznes uchun xizmatlar va to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanmoqda. Mijozlarning kreditini baholash va likvidlik muammolari kabi qiyinchiliklarga qaramay, mamlakat xalqaro standartlar asosida innovatsiyalar va rivojlanishga yo'naltirilgan ko'p qirrali o'zgarishlarga intilmoqda.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar, xalqaro institutlar va maslahatchilarni jalb etish, xorijiy tashkilotlar bilan strategik sheriklik O'zbekistonni jahon moliyaviy

tendentsiyalari bilan hamnafas bo‘ladigan davlat sifatida ko‘rsatuvchi bank islohoti rejasining muhim elementlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Murojaat (2018). Xalq so‘zi gazetasining 23 dekabr soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining Qarori, 14.07.2015 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2696.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son.
5. A.A. Azlarova, M.M. Abduraxmanova. Tijorat banklarining resurslarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T.: – «IQTISODIYOT» – 2019, 311 bet.
6. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
7. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой., 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр, 2015. – 592 с.
8. Корнилова, Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Корнилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.